

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2025 Vol. 3 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durdona Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“ Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk”da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova

Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari133

Madina Akramdjanova

Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi142

Nargiza O'ralova

Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....149

Lola Usmonova

Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....157

Muxlisa Arislanova

She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....166

Durdona Bultakova

O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....177

Ozodaxon O'ktamova

Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....183

Niluzar Axmedova

O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâdis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the Chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

LINGVISTIKA

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrniHamidulla DADABOYEV¹Dilnoza ABDUVALIYEVA²**Annotatsiya**

XIV yuzyil turkiy tillar taraqqiyotining murakkab davri sanalib, d belgili tildan dz belgili tilga uzil-kesil oʻtish jarayonining nihoyalanishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda turkiyda bitilgan yirik manbalar qatorida Mahmud ibn Ali as-Saroyi yozgan “Nahj ul farodis” (“Jannatlarning ochiq yoʻli”) asarining alohida oʻrni bor. Diniy-ahloqiy ruhda yaratilgan obidaning tovush tizimi, grammatik qurilishi, soʻz boyligi shu davrga xos “Qisasi Rabgʻuziy”, “Guliston bit -turkiy”, “Xusrav va Shirin”, “Muhabbatnoma” kabi Xorazm adabiy muhiti yodgorliklariga koʻp jihatdan mos tushadi. Ayni chogʻda, manba soʻz boyligi oʻziga xos boʻlib, unda nafaqat davr obidalari, balki “Devonu lugʻotit turk”, “Qutadgʻu bilig”, “Hibat ul-haqoyiq” singari XI-XII asrlarga oid asarlarda aks etmagan istilohu soʻzlar, birikmalaru izofalar qoʻllangan. Ushbu jihat asar leksikasining maxsus tadqiq etilishini talab qiladi.

Kalit soʻzlar: *soʻz boylik, qoʻlyozma, Xorazm adabiy muhiti, til xususiyati, turkologiya, tub qatlam, oʻzlashma qatlam, tushuncha.*

Turkiy xalqlarning boy adabiy merosiga tegishli ayrim durdona asarlar hanuz nafis qoʻlyozma holida turli mamlakatlar kutubxonalari yoxud xazinalarida saqlanmoqda. Mana shunday nodir yodgorliklar sirasida Mahmud ibn Ali as-Saroyi qalamiga mansub “Nahj ul-farodis” (“Jannatlarning ochiq yoʻli”) asarining

¹ *Dadabayev Hamidulla Aripovich* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

ORCID ID: 0000-0003-3438-3428

² *Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna* – Jizzax davlat pedagogika universiteti Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

E-pochta: a.dilnoza1981@gmail.com

ORCID: 0000-0001-8740-1883

Iqtibos uchun: Dadaboyev H., Abduvaliyeva D. “Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni. *Oʻzbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 8-17.

“Qadam+ fe’l” komponentli birliklarning ma’no tizimi va tezaurusi

Sabohat Qahharova¹

Annotatsiya

Mazkur maqola o‘zbek tilidagi “qadam+fe’l” komponentli birliklarning semantik tizimi va tezaurusini lingvosemantik hamda kognitiv yondashuvlar asosida tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda bu birliklarning ma’nosini o‘rganishda ichki konseptual asoslari, semantik rivojlanishi va metaforalari yoritilgan. Maqolada “qadam” leksemasining asosiy leksik ma’nosi bilan bir qatorda, u ishtirok etgan fe’l modellarining konnotativ, uslubiy va mantiqiy-majoziy xususiyatlari ham ko‘rib chiqilgan. Xususan, “*qadam tashlamoq*”, “*qadam bosmoq*”, “*qadam qo‘ymoq*” kabi birliklar inson harakati bilan bog‘liq semantik maydonni tashkil etadi. Ushbu birliklar tildagi harakat, maqsad, boshlanish, jarayon va natija kabi semantik kategoriyalar bilan bevosita aloqador. Shuningdek, “qadam+fe’l” qolipi ishtirokidagi birliklar frazeologiyada va metafora holatida muhim stilistik vazifalarga ega.

Maqolada tezaurus tahlil metodi asosida “qadam+fe’l” komponentli birliklarining leksemalararo paradigmatic, sintagmatik va assotsiativ bog‘lanishlari aniqlangan. Natijada o‘zbek tilining fe’l so‘z turkumi doirasida “qadam+fe’l” komponentli birliklarning konseptual modeli ishlab chiqilgan hamda uning leksikografik tavsifi shakllantirilgan. Shu sababdan ushbu maqola o‘zbek tilining leksik-semantik tizimi, frazeologik boyligi va kognitiv model masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish bilan bir qatorda elektron shakldagi semantik hamda tezauruslar yaratish jarayonida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *qadam+fe’l, fe’l komponenti, semantika, tezaurus, leksik birlik, kognitiv model, paradigmatic aloqa, frazeologiya, metafora, konsept.*

O‘zbek tilida “qadam tashlamoq” fe’li sintaktik qurilishi nopredikativ sintagma (birikma)ga teng frazemalar qatoriga mansub bo‘lib, uning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turkiy tilga mansub “adīm” so‘zining sinonimi hisoblangan “*qadam*” asli arab

¹ Qahharova Sabohat – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

E-pochta: sabohatqahharova922@gmail.com

ORCID: 0009-0006-8908-4010

Iqtibos uchun: Qahharova S. “Qadam+ fe’l” komponentli birliklarning ma’no tizimi va tezaurusi. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 66-75.

tilidan kirib kelgan soʻz boʻlib, “oyoq kafti, tovon; oyoq, odim” maʼnolarini anglatadi [ЎТЛ, 2008: 202-203]. “Qadama” (قَدَمَه) feʼlining “oldinga bordi” maʼnosi asosida hosil qilingan [Рахматуллаев, 2000: 520]. Arab tilidan “oyoqni old tomonga tashlab qilingan har bir harakat” maʼnosi bilan qabul qilingan [ЎТЛ, 1981]. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida “qadam” soʻzi son turkumiga oid soʻz bilan yonma-yon qoʻllanganda numerativ va alohida kelganda mustaqil leksema ot turkumiga mansub birlik sifatida tahlil qilinadi. Tilimizda **“qadam”** soʻzi bilan bogʻliq frazeologik birliklar mavjud boʻlib, ularni quyidagicha ikki guruhga ajratish mumkin:

1) Ikki aʼzoli feʼl-frazemalar: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qoʻymoq, qadam olmoq, qadam(i) yetmoq, qadam uzmoq*;

2) Uch aʼzoli feʼl-frazemalar: *qadam ranjida qilmoq*.

Oʻzbek tilshunosligida “qadam” soʻzi bilan bogʻliq frazeologik birliklar talaygina boʻlsa-da, ammo bu kabi birliklar yaqin yillargacha frazeologik birlik yoki izohli lugʻatlarda uning turli maʼno qirralari alohida soʻzlik sifatida berilmagan edi, faqat izohli lugʻatdagina “qadam” leksemasi ichida *qadam otmoq (tashlamoq), qadam ranjida qilmoq, qadam bosmoq, qadam qoʻymoq* lugʻaviy birliklar izohiga misollar keltirilib tahlil qilingan [ЎТЛ, 2008: 203]. Ammo 2022-yilda bir guruh tilshunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan qayta nashr etilgan izohli frazeologik lugʻatining qayta toʻldirilgan nashri bosmadan chiqishi va yuqorida tilga olingan “qadam” soʻzi bilan bogʻliq birliklarning barchasi frazema tarkibiga kiritilishi mazkur muammoning yechimiga asos boʻldi [Rahmatullayev, 2022: 395-397].

Keltirilgan feʼl-frazemalar bir sinonimik qatorni tashkil etsa-da, ekvivalent sifatida birining oʻrniga ikkinchisi doimo almashinib kelavermaydi: har biri nutq qurshovida alohida turlicha maʼno nozikliklariga ega. Mazkur guruhdagi “qadam tashlamoq” feʼli boshqalariga qaraganda uslubiy betaraf (neytral) leksik birlikdir. “*Qadam ranjida qilmoq*” frazemasi asosan ijobiy semada badiiy, publitsistik uslubda, qisman soʻzlashuv uslubida qoʻllanadi [Qahharova, 2024: 287-296]. Baʼzan soʻzlashuv uslubida qoʻllanganda kinoya, kesatq kabi salbiy maʼnolarni ifodalab keladi. *Qadam tashlamoq, qadam bosmoq, qadam qoʻymoq* feʼllari deyarli barcha uslublarda qoʻllanishi jihatdan bir paradigmatic qatorga mansub sanaladi va “yurmoq” harakat feʼlining boshlanish nuqtasini anglatadi. Buni quyidagi jadvalda koʻrish mumkin:

	“yurmoq” leksemasining denotativ ma’nolari	qadam tashlamoq	qadam bosmoq	qadam qo’ymoq
1	Gorizontal harakat	+	+	+
2	Chiqish va manzilga yetish nuqtasi aniq bo’lmagan harakat	+	+	+
3	Aksional jihatdan tugallanmagan, davomli harakat	+	+	+
4	Vaqt, makoni chegaralanmagan harakat	+	+	+
5	Predmetga nisbatan yo’nalishi ko’rsatilmagan harakat	+	+	+
6	Insoniyatning oyoq yordamida qilgan harakati	+	+	+
7	Hayvon va hashoratlarning oyoq bilan bog’liq harakati	-	-	-
8	Butun tana, gavda bilan bog’liq harakat	-	-	-
9	transportlar (mashina, avtobus, poyezd, metro kabilar), mexanizmlar (masalan, soat) harakati	-	-	-

Ko’rinadiki, uchala birlikning ham ma’nolari deyarli bir xil, ammo ba’zi hollarda uning tarkibiy qismi “qadam” so’zi nutq jarayonida egalik va kelishik affikslarni olib kelishi ham kuzatiladi: *qadamingizni sekin tashlang, qadamingni o’ylab bos, birinchilardan bo’lib qadam(imni) qo’ydim* kabi. Aytish mumkinki, nutqda ot+fe’l modelidagi qo’shma fe’l tarkibiy qismlari o’rin almashinib qo’llanishi va ot turkumiga mansub birlikka otga xos sintaktik shakl yasovchi affikslar qo’shib kelish holatlari kuzatilishi tabiiy hol, ammo *qadam tashlamoq, qadam bosmoq, qadam qo’ymoq* fe’llari frazeologik birliklar sanalar ekan, frazemani tashkil etuvchi birliklarga grammatik shakllarni qo’shib yoki qismlari orasiga biror leksemani kiritib bo’lmaydi. Xususan, bu holat quyidagi misollarda yaqqol ko’rinadi: *Umr bo’yi qilgan mehnatingiz rohatini ko’rish naqadar baxt! Har bir tashlagan qadamingiz muvaffaqiyatga sababchi bo’lsin!* (Gazeta. uz.dan). *Joning tekinga kelgan bo’lsa ham qadamingni o’ylab bos.* (T. Malik). Bu kabi birliklar nutqda qay tartibda qo’llanmasin, morfologik va sintaktik tahlilda bir so’z, yaxlit bitta gap bo’lagi sifatida olinadi. Q.Sapayev ot va otlashgan so’zlar bilan *qo’ymoq, chiqarmoq, olmoq, bog’lamoq, tutmoq, kechirmoq, tashlamoq* kabi fe’llarning birikishidan asli frazeologik birliklar hosil bo’lishini, bunday birliklarni ot + fe’l tuzilishli qo’shma fe’llar qatoriga kiritish to’g’ri bolmasligini qayd

etgan: *ko'ngil qo'ymoq, nom chiqarmoq, dam olmoq, umid bog'lamoq, yo'l tutmoq, qo'lga olmoq, kun kechirmoq, qadam tashlamoq, ko'zdan kechirmoq*. Bu xil birliklarning ma'nosi uning tarkibidagi qismlarning to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmaydi. balki har ikki qism yaxlitligicha ko'chma ma'no anglatadi [Sapayev, 2009: 71].

Ma'lumki, nutqda frazema tarkibidagi birliklar o'rnini ham, ularga qo'shilib kelgan grammatik shakllarni ham boshqasiga o'zgartirib bo'lmaydi: *ko'ngil qo'ymoqni qo'yilgan ko'ngil yoki dam olmoqni olingan dam; qo'lga olmoqni qo'lda olmoq* deyish noto'g'ri. "Tashlamoq" fe'li quyidagi frazemalar tarkibida yaxlitlik hosil qiladi: *luqma tashlamoq, chek tashlamoq, engak tashlamoq*.

Qadam tashlamoq shu tipdagi frazemalar qatoriga kiradi. *Tashlangan qadam* birikmasi keltirilgan frazemaning o'rin almashgan ko'rinishi emas, alohida sintaktik birikuv hisoblanadi. Qayd etilgan frazema komponentlarining o'rin almashuvi *tashlamoq qadam* tartibida bo'ladi va bunday tartib mantiqan muvofiq emas. Bunda ot turkumiga mansub birlikka otga xos sintaktik shakl yasovchi affiksalar qo'shilib keladi. *Ba'zida tashlagan har bir qadamingiz hayotingizda ko'pgina narsalarni izga tushirish mumkin.* (Gazeta.uz.dan) *Uning isitmasi kuchli, boshi og'rir edi, tashlagan qadami xohlagan yeriga tushmasdi.* (A.Qahhor). Aytish joizki, bunda nafaqat mazkur fe'l tarkibidagi birliklar o'rni alamshinibgina qolmasdan, balki ular orasida muayyan bir leksema qo'llash holati ham uchraydi.

"*Qadam tashlamoq, qadam bosmoq*" fe'llari barcha tirik jonzot (inson, hayvon kabi)larga nisbatan ishlatiladi, biroq "*qadam qo'ymoq*" fe'li denotativ semada faqat insonning oyoq yordamida amalga oshirilgan harakatini ifodalaydi. Ammo uchala fe'lning arxisemasi birxil: "oyoq yordamida bir joydan boshqa joyga qarab harakatlanishni boshlash, oldinga tomon yurish" kabi denotativ ma'nolarni anglatib keladi: *Faqatgina bir qadam tashla, uch, besh yoki o'n qadam emas, bir qadam.* (Kun.uz.dan). *Qadam tashla* – pul ishla! ("Sog'lom turmush tarzi" platformasidan). *Qadam tashla* – mag'rur, taomlan – oz-ozdan, nafas ol – chuqur, uxla – keragini, liboslan – sodda... (gazetadan). *Mana bir qadam bosdim sen tomon, Sen ham bir qadam tashla men tomon.* (gazetadan). *Oyga qadam qo'ygan ilk inson Nil Armstrong bo'ldi.* (Kun.uzdan). *Bahri xola oldinda Risolat bilan birga borar va otning qadam tashlashi maqomiga ashula aytar edi.* (A. Qahhor). *Tuyaqushlar salobatli qadam tashlab o'tishadi. Sher shu joylarning hukmdoridek, beparvo va dadil qadam tashlab, savlat to'kib kelaverdi.* ("Qiziqarli geografiya" kitobidan). *Orqadagi eshaklar beparvo qadam tashlaydilar.* (T. Malik). *Eshak dik-dik qadam*

bosadi. (O'. Hoshimov).

Endi har bir frazemaning konnotativ semalariga to'xtalib o'tamiz:

"Qadam tashlamoq" frazemasining konnotativ semalari quyidagicha:

"Qadam tashlamoq"² – "bir holatdan boshqa holatga o'tish, ma'lum bir pozitsiyani o'zgartirish" ma'nosida: *Sog'liqni saqlash vazirligi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda Toshkentda "Sog'lom hayotga qadam tashla!" aksiyasi o'tkazadi. Shundagina komillik yo'lga yana bir qadam tashlagan bo'lasiz.* (Kun.uzdan).

"Qadam tashlamoq"³ – "shiddat bilan harakatlanish, odimlash, tezkorlik bilan olg'a intilish" semasini anglatadi: *Kelajak sari qadam tashla"* shiori ostida davra suhbatlari tashkil etmoqda. Hech kimdan kam emasmiz, doim yonib, yashaymiz, Kelajakka mardona, shaxdam **qadam tashlaymiz.** ("Konchlar hayoti" gazetasidan). Ertangi go'zal hayoting uchun bugun o'rningdan tur va **qadam tashla.** (Qalampir.uzdan). Bobom bo'yi kalta bo'lganiga zarda qilgandek katta-katta **qadam tashlab** loy kechib ketyapti (O'. Hoshimov). Shuning uchun biz konservatoriyada ijodiy muhit yaratish bilan bir qatorda hammamiz bitta maqsad sari ildam **qadam tashlab,** jips oila sifatida, hamfikrlar sifatida harakatlanishimiz kerak degan maqsadni qo'yganman. (Kun uz.dan).

"Qadam tashlamoq"⁴ – "davlatni boshqarish, hukmronlik qilish" ma'nosida ishlatiladi: *Qo'r tuzgan vaqtingdan boshlab, shuni bilki, tangri senga adolat qilib, ko'pchilik mulklarni senga berdi. Endi sen yalovingni baland ko'tarib, odil qadam tashla.* ("To'rt ulus tarixi" kitobidan).

"Qadam tashlamoq"⁵ – "tanatanavorlik, ko'tarinkilik, o'ziga xos uslubda yurish" semasida qo'llanadi: askar va harbiylarning yurishi: **"Shaxdam qadam tashla"** komandasi berilganda shaxdam qadam bilan, **"Qadam tashla"** komandasi berilganda esa oddiy qadam bilan harakat qilinadi. (Gazeta.uz.dan)

"Qadam bosmoq" fe'lining konnotativ semalari quyidagicha:

"Qadam bosmoq"² – "ma'lum bir yoshga to'lgan, kirgan" ma'nosini anglatadi: *Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib, o'n sakkizga qadam bosganlikda bo'yi ham onasiga yetayozgan, jussasi onasidan ko'ra to'laroq edi.* (A.Qodiriy).

"Qadam bosmoq"³ – "shiddat bilan harakatlanish, tezkorlik bilan olg'a intilish" semasini ifodalagan: Boshi devorga urilganini anglagan inson zamonga qasdma-qasd **qadam bosadi** (gazeta

uzdan).

“Qadam bosmoq”³ – “nojo’ya xatti-harakat” ma’nosida qo’llanadi: *Chakki qadam bosgani yo’q. Tinchgina yuribdi. Uning qadam bosishi g’alati...* (T. Malik).

“Qadam qo’ymoq” fe’llarining konnotativ semalari quyidagicha:

“Qadam qo’ymoq”² – “ma’lum bir yoshga to’lgan, kirgan” ma’nosini ifodalaydi: *Bekxo’ja o’n to’rt yoshga qadam qo’yganida to’satdan shol bo’lib qoldi.* (A.Obidjon). *Oltmishqa umr qo’yg’onda qadam, Qush tilin sharh etgali yo’ndum qalam.* (“Lison ut-tayr” dan).

“Qadam qo’ymoq”³ – “ulg’ayish, o’sish, aql-idrok sohibi bo’lish” semasida qo’llanadi: *Oq-qorani ajratish pallasiga qadam qo’ygan chog’laridanoq...* (Qalampir.uzdan)

“Qadam qo’ymoq”⁴ – “bir holatdan boshqa holatga o’tish, ma’lum bir pozitsiyani o’zgartirish” ma’nosini anglatadi: *Shaytanat olamiga qadam qo’ygan har bir tirik jonga laqab beriladi. Ular oilaviy turmushga qadam qo’yishdan oldin bu xonalarda nafaslarini rostlashlari lozim.* (Qiziqarli geografiya” dan). *Iste’dodli shoira Zulfiya Mo’minova ham shu yillarda she’riyat ostonasiga qadam qo’ydi.* (Gazeta. uzdan). *Ma’rifat vodiysig’a urdung qadam. Chun Talab vodiysig’a qo’ysang qadam. Bu mahal yo’lg’a qachon qo’ysam qadam. Ishq chun qildi vujudingni adam, Ollingg’a har dam kelur yuz ming alam. Munda chun qo’ydi qadam ahli ravish, Onga hayronlig’din o’zga bo’lmas ish.* (“Lison ut-tayr” dan).

Keltirilgan misollardan ko’rinadiki, har uch fe’l-frazema oyoqni yerga turli usulda tekkizib harakatlanish, masalan, *“qadam tashlamoq”* so’zida oyoqni yerga qattiq zarb bilan tashlash; *“qadam bosmoq”*da oyoqni yerga mahkam o’rnashtirib olish; *“qadam qo’ymoq”* fe’lida esa oyoqni narsani yerga qo’ygan kabi oddiy qo’yish va shu holatda barcha harakatlarni davom ettirish semalari mujassam. Shu sababdan *shaxdam, gurs-gurs, tap-tap, ildam* leksemalari *“qadam tashlamoq”* fe’lining valentligini namoyon qiladi: *Uning shaxdam qadam tashlashi, alpdag kelishgan qomatiga qarab yosh deb o’ylagandim, yo’q...* (S. Anorboyev). *“Qadam bosmoq”* fe’lida biroz qo’pollik, salbiylik bo’yog’i mavjud: *..endi uyimga qadam bosa ko’rma!* (T. Malik). *“Qadam qo’ymoq”* fe’li esa boshqa birliklardan farqli o’laroq ohistalik, sokinlik semasi mujassamligi sabab she’riyatda ko’proq ishlatiladi: *Qo’y qadam odob bilan yerda insonlar yotar* (Ashuladan). *Har sori boqsang tamosho aylagung asbobi aysh, Har taraf qo’ysang qadam ishratg’a bo’lg’ungdur duchor.* (Ogahiy). *Kimki qimor yo’liga qo’ysa qadam, Oqibat sharmanda-yu rasvo*

bo'lar. (Sh. Zunnun). Yo'lga ermastur **qadam qo'ymoq** ravo. Manga ham ayon et, zoti muhtaram ("Lison ut-tayr"dan).

O'zbek tilidagi "qadam tashlamoq, qadam qo'ymoq, qadam bosmoq" fe'llarining turk tilidagi ekvivalenti "adım atmak"dir. "Türk Dil Kurumu" (TDK), "Büyük Türkçe Sözlük" kabi izohli lug'atlarda bu fe'ning quyidagi ma'nolari berilgan:

1. Yurish uchun oyog'ini oldinga qarab bosish
2. Bir ishga ilk marta kirishish.

Turk tilida "adım atmak" ("qadam qo'ymoq") fe'li vaqt o'tishi bilan o'zining denotativ ma'nosidan uzoqlashib, idiomaga aylangan: yangi davrga kirish yoki muayyan harakatni boshlash semalarida ishlatiladi. Bu idiomaga nutqda ishlatilganda turli xil ma'nolarga ega bo'lib, turk va o'zbek tillaridagi semalari deyarli o'xshash: ham yurish, ham yangi tajriba orttirish ma'nolarini ifodalaydi.

2-jadval. "Qadam tashlamoq" iborasining ma'nolari (TDK)

	Ma'nolari	Misollar
1	Yangi ishni boshlash yoki ilgari sinab ko'rilmagan narsani sinab ko'rish	<i>Men bilmagan ishga qadam tashlagan bo'lsam ham, bu yo'ldan orqaga qaytmayman.</i>
2	Yangi davrga kirish	<i>Bugun o'n olti yoshni qarshilagan Serkan kelajak sari qadam tashladi.</i>
3	Yurish	<i>Bugun bozor shu qadar gavjumki, qadam tashaydigan joy yo'q.</i>

"Qadam tashlamoq" fe'lining tezaurus lug'atlarda quyidagicha ifodalash mumkin:

1.Morfologiya va sintaksisda: *"qadam" va "tashlamoq"* so'zlarining qo'shilishidan yangi leksema hosil bo'lgan.

Fe'l so'z turkumiga mansub, tuslanadi: *qadam tashladim, qadam tashlamoqda, qadam tashladiqadam tashlasak, qadam tashlaysiz, qadam tashladingiz;*

2.Talaffuz qilinishi: qadam tashla

3. Ma'no tarkibi: *odimlamoq* - "bir joydan boshqa joyga qadam tashlab harakatlanmoq, kelmoq, yurmoq, intilmoq " ma'nolarini anglatadi.

A) sinonimlari: *yurmoq, qadam tashlamoq, qadam qo'ymoq, intilmoq, rivojlanmoq;*

B) antonimi: *to'xtamoq, bir joyda qotib qolmoq*

D) giperonimi: *yurmoq* – giperonim,*odimlamoq* – giponim (troponim)

E) giponim (troponim)i: *qadam qo’ymoq* – giponim (troponim), *odimlamoq* - giperonim

H) yaqin ma’nodagi so’zlari: oyoq yordamida harakatlanmoq, qadam (odim), makon, tomon, vaqt.

4. Etimologiyasi: *“odimla”* asli turkiy tilga mansub so’z bo’lib, “qadamla” ma’nosini anglatgan *a:d- fe’liga -(i)m, -la* affikslarini qo’shish bilan yasalgan, *“ikkala oyoqni ketma-ket siljitish orqali oldinga yoki orqaga chekinish, uzluksiz harakat”* ma’nolarini anglatadi;

5. Turli xil lug’aviy birliklar (leksemalar) o’rnida qo’llanilishi: *qadam tashlamoq (qadam otmoq), qadam bosmoq, qadam qo’ymoq, qadam olmoq, qadamlamoq;*

6. Boshqa tillarda qo’llanishi, Ingliz tilida *“step”*, nemis tilida *“schreiten (schritt, geschritten)”*, rus tilida *“шагать”*, turk tilida *“ayakla, adım atmak”*

Aytish mumkinki, “qadam + fe’l” qolipli birikmalarning semantik tuzilishi, ularning ma’no qatlamlari hamda tezaurusi tahlil qilindi. Aniqlanishicha, bu turdagi birliklar o’zbek tilining frazeologik boyligini namoyon etuvchi muhim til hodisasi bo’lib, ular insonning harakat, niyat, ruhiy holat va ijtimoiy munosabatlarini ifodalashda faol qo’llaniladi.

Tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, “qadam” komponenti turli fe’llar bilan birikib, metaforik, metonimik va kontekstual ma’nolarning keng spektrini hosil qiladi. Ushbu birliklarning semantik tarmoqlanishi ularning tezaurus tizimini shakllantirib, nutqda ma’no rang-barangligini ta’minlaydi. Shuningdek, “qadam” so’zining milliy-madaniy mazmuni, ramziy ma’nosi va xalq dunyoqarashidagi o’rni ham frazeologik birikmalarning semantik mohiyatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada “qadam + fe’l” komponentli birliklar o’zbek tili leksikasining dinamik qatlamini tashkil etib, tilning ichki tizim imkoniyatlarini kengaytiradi.

Adabiyotlar

- Раҳматуллаев Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II жилд. – Тошкент: Университет. www.ziyouz.com kutubxonasi
- Rahmatullayev Sh. va b. 2022. O’zbek tilining frazeologik lug’ati – Toshkent: G’.G’ulom.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2008. V жилд – Тошкент: ЎЗМЭ.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1981. II жилд. – М.: Рус тили
- Sapayev Q. 2009. Hozirgi o’zbek tili (morfemika, so’z yasalishi va morfologiya).– O’quv qo’llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, B.71. www.ziyouz.com kutubxonasi.
- Qahharova S. 2024. “Qadam ranjida qilmoq” frazemasining semantik

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus

Sabohat Qahharova¹

Abstract

This article was dedicated to the analysis of the semantic system and thesaurus of “qadam + fe’l” component units in the Uzbek language, based on linguistic-semantic and cognitive approaches. It explores the conceptual foundations, semantic development, and metaphors of these units. Alongside the core lexical meaning of the lexeme *qadam* (“step”), the article also examines the connotative, stylistic, and logical-figurative features of verb models in which it appears. In particular, expressions such as *qadam tashlamoq* (to take a step), *qadam bosmoq* (set foot in/on), and *qadam qo’ymoq* (to step) form a semantic field related to human movement. These units are directly connected with semantic categories such as action, purpose, initiation, process, and result. Furthermore, expressions with the “qadam + fe’l” pattern play important stylistic roles in phraseology and metaphorical usage.

The article employs the thesaurus analysis method to identify paradigmatic, syntagmatic, and associative connections among the lexical units formed by “qadam + fe’l” components. As a result, a conceptual model of these units within the Uzbek verb category has been developed, and its lexicographic description has been formulated. Therefore, this article not only deepens the study of the Uzbek language’s lexical-semantic system, phraseological richness, and cognitive modeling but also holds practical significance in the creation of electronic semantic and thesaurus databases.

Keywords: *qadam + verb, verb component, semantics, thesaurus, lexical unit, cognitive model, paradigmatic relation, phraseology, metaphor, concept.*

¹ *Sabohat Qahharova* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

E-mail: sabohatqahharova922@gmail.com

ORCID: 0009-0006-8908-4010

For citation: Qahharova, S. (2025). The Semantic System and Thesaurus of “Qadam + Verb” Component Units. *Uzbekistan: Language and Culture. Linguistics*. 2025-3: 66-75.